



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SURXONDARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2024-yil yanvar-aprel*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 76-225-65-74*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024-yil 1- may holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 5 329 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 71 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 258 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-aprel oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 6 582,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 110,4 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 197,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 114,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 6 384,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 110,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 397,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 114,1 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar-aprel oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	6582,3	110,4
Termiz sh.	1193,8	109,5
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	290,1	109,8
Angor	320,8	109,6
Bandixon	100,4	108,7
Boysun	281,2	109,0
Muzrabot	277,1	113,8
Denov	1403,7	111,1
Jarqo'rg'on	354,6	109,7
Qumqo'rg'on	293,7	110,1
Qiziriq	292,3	108,7
Sariosiyo	258,9	114,3
Termiz	129,0	111,8
Uzun	308,7	110,8
Sherobod	398,4	110,8
Sho'rchi	679,6	109,3


2024-yilning yanvar-aprel oyida 2023-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan viloyatning Sariosiyo (114,3 %), Muzrabot (113,8 %) va Termiz (111,8 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-aprel)




So'ngi 5 yillikda (2020- 2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2023-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2022- yilning mos davriga nisbatan 121,7 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda) (2023-yil, 2024- yil yanvar-aprel oylari)



2024-yilning yanvar-aprel oyida o'sish sur'ati **110,4 %** ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumani 21,3 % bilan 1 403,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Bandixon tumani 1,5 % bilan 100,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.


Hajmi, mlrd. so'm






Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-aprel oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 6 384,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 10,2 % ga oshdi. Viloyat miqosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 97,0 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 14,0 % ga oshdi va 197,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 3,0 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qiziriq (99,5 %), Boysun (99,5 %) va Angor (99,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 3,0 % ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz sh (6,8 %), Denov (4,6 %), Jarqo'rg'on (2,6 %) va Termiz (2,6 %) tumanlarida kuzatildi.

3,0 %



97,0 %




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Hududlar kesimida ma’lumot, *ming so’mda*



2024-yilning yanvar-aprel oyi holatiga o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2 282,0 ming. so‘mni (2023-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 107,7 %) tashkil etdi.


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Termiz shahri (5 901,3 ming. so‘m), Denov (3 331,7 ming. so‘m) va Sho‘rchi (2 966,5 ming. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024-yil yanvar-aprel), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar- aprel oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	1397,9	114,1
Termiz sh.	107,1	121,9
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	130,5	106,3
Angor	47,2	112,4
Bandixon	69,9	106,6
Boysun	89,5	122,6
Muzrabot	138,1	137,9
Denov	141,8	109,1
Jarqo'rg'on	76,2	116,7
Qumqo'rg'on	84,3	107,2
Qiziriq	102,2	112,6
Sariosiyo	116,4	123,0
Termiz	36,9	111,9
Uzun	96,9	105,8
Sherobod	48,3	113,4
Sho'rchi	112,6	105,3


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-aprel)














Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024-yil yanvar-aprel)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-aprel oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 397,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 114,1 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 653,6 mlrd. so'mni (123,8 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 744,3 mlrd so'mni tashkil etdi (104,0 %).













2024-yilning yanvar-aprel oyida tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 653,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (318,7 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 318,7 mlrd. so'm  48,8%	Non va non mahsulotlari 75,3 mlrd. so'm  11,5 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 62,5 mlrd. so'm  9,6 %
Tovuq go'shti 19,3 mlrd. so'm  3,0 %	Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 33,8 mlrd. so'm  5,2 %	Tuxum 21,2 mlrd. so'm  3,2 %
Ziravorlar 14,6 mlrd. so'm  2,2 %	Sut va sut mahsulotlari 20,3 mlrd. so'm  3,1 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 10,4 mlrd. so'm  1,6 %
Tuzlamalar 21,9 mlrd. so'm  3,3 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 14,1 mlrd. so'm  2,2 %	Nooziq-ovqat tovarlar 41,5 mlrd. so'm 6,3 %

2024-yilning yanvar-aprel oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 744,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 542,0 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 194,2 mlrd. so'mni, otlar – 6,1 mlrd. so'mni, parrandalar – 2,0 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>359,4 mlrd. so'm</p>  <p>48,3 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>102,7 mlrd. so'm</p>  <p>13,8 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>79,9 mlrd. so'm</p>  <p>10,7%</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>164,5 mlrd. so'm</p>  <p>22,1 %</p>	<p>Otlar</p> <p>6,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,8 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>29,7 mlrd. so'm</p>  <p>4,0%</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,8 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>0,8 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,4 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0 mlrd. so'm</p>  <p>%</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024-yil 1-may holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 412 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 411 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar – aprel oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	170,7	109,2
Termiz sh.	67,0	112,6
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	3,8	109,4
Angor	4,7	108,8
Bandixon	0,9	104,1
Boysun	3,2	107,2
Muzrabot	4,4	107,8
Denov	26,8	102,8
Jarqo'rg'on	10,6	112,3
Qumqo'rg'on	4,6	109,2
Qiziriq	3,6	111,4
Sariosiyo	7,8	113,0
Termiz	12,3	101,2
Uzun	4,1	109,2
Sherobod	9,8	106,2
Sho'rchi	7,1	115,3

2024-yilning yanvar-aprel oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 170,7 mlrd. so'mga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan 9,2 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 99,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Surxondaryo viloyati	345,5	100,0
Termiz sh.	105,6	30,6
tumanlar:		
Oltinsoy	1,3	0,4
Angor	8,5	2,5
Bandixon	0,1	0,0
Boysun	1,0	0,3
Muzrabot	0,5	0,1
Denov	185,2	53,6
Jarqo'rg'on	21,1	6,1
Qumqo'rg'on	1,2	0,3
Qiziriq	1,1	0,3
Sariosiyo	2,9	0,9
Termiz	6,1	1,8
Uzun	0,4	0,1
Sherobod	1,6	0,4
Sho'rchi	8,9	2,6


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Denov tumani (185,2 mlrd. so'm) va Termiz shahri (105,6 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024-yilning yanvar-aprel oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 345,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 51,6 % ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 83,2 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 28,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 262,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati –62,4 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda




Viloyat bo‘yicha 2024-yilning yanvar-aprel oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 740,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 8,8 % ga o‘ydi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 1 121,0 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 109,8 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 88,1 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATI

2024-yil 1-may holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 165 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 19 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 146 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga ega eng yirik korxonalar Angor (334,4 %) , Jarqo‘rg‘on (185,7 %) va Denov (131,5 %) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so‘m	2023-yil yanvar- aprel oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	1740,7	108,8
Termiz sh.	456,2	112,2
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	32,1	112,1
Angor	24,8	110,4
Bandixon	21,7	115,6
Boysun	12,7	104,7
Muzrabot	93,8	106,7
Denov	613,8	113,0
Jarqo‘rg‘on	73,1	109,8
Qumqo‘rg‘on	45,6	99,9
Qiziriq	8,9	104,2
Sariosiyo	54,8	105,2
Termiz	124,7	109,9
Uzun	23,8	75,0
Sherobod	31,8	72,2
Sho‘rchi	122,9	104,3